

YOSHLAR - VATAN TARAQQIYOTI TAYANCHI

Xoliqulova Nafisa Rustamovna

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Yoshlarni milliy g‘oya va O‘zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, sadoqatli, tarbiyalash, maqsad, ruhida, tariximiz.*

Vatan – bu insonning tug‘ilib o‘sgan yeri, uning go‘daklik chog‘idanoq mehr qo‘ygan o‘chog‘i, mahallasi va qishlog‘i bilan ta‘riflanadi. Vatanni sevish uni himoya qilish naqadar savobli ish ekanligi, vatanga xiyonat qilish esa kechirilmaydigan katta gunohligini ko‘rishimiz mumkin. “Vatan - ostonadan boshlanadi”, deganlaridek vatan har bir kishining o‘z qalbidan vijdonidan boshlanadi. Ya’ni, har kishining qalbida vatanning jajji qiyofasi yashaydi. Vatan – biz nafas olayotgan havodir. Vatanning bir zarrasi ekanini anglamoq kishi uchun iftixor va sharaftir. Vatanni onaga qiyoslashadi. Ko‘plab adabiyotlarda “ona vatan” jumlasini juda ko‘p uchratganmiz. “Biz hech kimdan kam bo‘lmaymiz, kam emasmiz” shiorini yodda tutgan holda vatan ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz zarur. Axir bu muqaddas vatan bizniki emasmi? Uni sevishimiz ko‘z qorachig‘iday asrash burchimiz deb bilaman. Bu vatan, bu yurt seniki, meniki, uniki, buniki emas barchamiznikidir. Shu jumladan shuni ham yozishim kerak deb o‘ylayman. Zero hozirgi kunda ko‘plab vatandoshlarimiz eskicha boqimandalik kayfiyatida yurgani barchamizga sir emas. Mana shunday vatandoshlarimizga kerakli yordamlarni berib qo‘llasak nur ustiga a‘lo nur bo‘lardi deb o‘ylayman.

Zero oqibatli yurtda baraka bo‘ladi. Lekin kasbimizdan o‘z manfaatimiz yo‘lida qurol sifatida foydalanmaylik.

Ko‘plab davlatlarda arzimagan sabablarni ro‘kach qilib oilalar buzilishi yuzaga kelmoqda. Bu esa vatanimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Oqibatda norasida go‘daklar yetim bo‘lib qolmoqda. Bu esa bolalar kelajagiga jiddiy ta‘sir etmoqda.

Yetim bolani ko‘ngli o‘ksik bo‘lib, ushbu joyni turli maqsaddagi kishilar to‘ldirishga urinishi ehtimoldan holi emas. Mana shunday kemptiklikni vatanparlik ruhida to‘ldiraylik. Bir birimizga mehr-oqibatli bo‘laylik. Zero bolalar oiladagi mehrni ko‘rib vataniga o‘z muhabbatini baxshiyda eta olsin. Biz insonlardan nima qoladi, yaxshi amal yaxshi nom. Hatto buyuk Iskandar ham o‘limidan so‘ng tobutidan qo‘lini chiqarib ketdi. Iskandar hayoti bizga ibrat maktabi emasmi? U yurti uchun buyuk ishlarni qildi. Uning birgina shu amali kelajak uchun o‘rnak deb bilaman. Hozirda ko‘plab jabhalarda islohotlar ketmoqda.

Vatandoshlarimizni fikrini ekologik madaniyatga qaratmoqchiman. Bunga esa bee‘tiborlik bilan kelajakka bolta urmaylik. Vatanparlik yo‘lida e‘tibor chekka hududlarda ham olib borilishini istardim. Ushbu masalada bir yoqadan bosh chiqarilsa, yosh avlodni vatanparvarlik tuyg‘ularini jushqunlantira olamiz deb o‘ylayman. Ana ushandagina bu sohada g‘alabaga erishar edik. G‘alaba yo‘lida tortilgan har qanday azob muqaddasdir. Mahallalarni ko‘zga ko‘ringan joylarida sport kompleksi, shinamgina kutubxona barpo etilsa vatan ravnaqiga o‘zini oliy janob hissasini qo‘sha oladigon yoshlar yetishib chiqishiga ishonaman. Zeroki vatan ravnaqini yoshlar ta‘lim tarbiyasidan boshlamas ekanmiz, kelajakda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bobomiz Abdulla Avloniy ham “ta‘lim tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb bir asr muqaddam be‘jiz aytmagan. Pullarimizni qayerdagi xoyu havasga emas, yoshlarimiz kelajagiga sarf etsak maqsadga erishamiz.

Oila – vatan ichra mo‘jaz vatan. Oilani muqaddas bilish va uning mustahkamligi uchun kurashish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan yuksak ma‘naviy tuyg‘u, hayotiy tutumdur. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, avlodlar davomiyligini ta‘minlaydigan ma‘naviyat qo‘rg‘oni bo‘lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizdir.

Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Davlatimiz rahbarining “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida” gi qarorida bu borada bajarilajak ezgu ishlar, muhim vazifalar o‘z ifodasini topgan.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni milliy urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ibratli oilalar bilan tanishtirish maqsadida shahar va tumanlarimizda ko‘plab ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda, – deydi “Mahalla” xayriya jamoat fondining viloyat bo‘limi raisi Akramjon Yo‘lbarsov. Albatta, bu yo‘nalishdagi ishlarda mahalla institutining o‘rni katta bo‘lmoqda. Ta‘lim-tarbiya ishlarida “oila-maktab-mahalla” konsepsiyasi, “Ota-onalar universiteti” tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshqacha aytganda, oila va mahalla institutlari uyg‘un rivojlantirilmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat‘i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

— yoshlarni milliy g‘oya va O‘zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

— qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

— milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma‘nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

— yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish; jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

— O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo‘lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta‘sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

Vatanparvarlik insonning qon-qoniga singgan bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Yurtga, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob azaliy fazilatlarni asrabavaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma‘naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmog‘i kerak” - degan so‘zlari o‘rinlidir. Har bir insonning o‘z vatani bo‘lgandagina u haqiqiy vatanparvar bo‘la oladi. Vatanparvarlik, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtini, yerini, elini e‘zozlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy taraqqiyoti haqida qayg‘urish, g‘amxo‘rlik qilish, taraqqiyotga o‘zining munosib hissasini qo‘shish, o‘z davlati, mamlakatining mustaqilligini saqlash uchun jon kuydirishi va kerak bo‘lganda unga o‘z hayotini bag‘ishlashidir.

Vatanparvarlik vatan so‘zi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, vatan, ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ona yurt” ma‘nosini bildiradi. Bu tushunchani ikki - keng va tor ma‘nolarda tushunish mumkin. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma‘noda tushunishdir. Agar, bir xalq vakillari doimiy holda yashagan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, uni keng ma‘noda tushuniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarning vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas‘uliyat bilan bajarishga bo‘lgan havasini oshirish, ularda qurolli kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog‘lom, kuchli va irodali ma‘naviy

yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san‘atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.Хайдаралиев, А.Аълохонов. Мактабгача ёшдагиларнинг жисмоний ривожланиши ва тайёргарлигининг ёш хусусиятлари (2022). (manba yoki birirta qo‘llanma qo‘yilishi kerak)
2. X.Haydaraliev, D.Isakov. Methods of Controlling the Physical Loads of Players. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, (2022). p.133-135.
3. X.Haydaraliev, I.Malikov. Loading and its norm in physical education lessons. In E Conference Zone (2022, June) (pp. 60-63).
4. O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi “Hurriyat” gazetasi tahririyati info@nspi.uz